


**IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)**


2023-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **56,9 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida **2143** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **121,5** foizni tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 717 ta, savdo sohasida 644 ta, sanoat tarmog'ida 321 ta, qurilish tarmog'ida 90 ta, tashish va saqlashda 88 ta, yashash va ovqatlanishda 80 ta tashkil etilgan.

**Korxonalar soni kesimida**



2023- yilning yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 56,9 foizi (2022- yil yanvar-martida 58,6 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 1418,6 mlrd. so'mni (22,2 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4 898 tani tashkil etdi);



3230,8 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,9 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 5246 tani tashkil etdi;



1032,8 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 33,5 foizi) 2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 95,0 foizni tashkil etdi;



1315,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 78,8 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2 923 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,7 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 89,2 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 6,3 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 96,9 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 954 tani tashkil etdi);




- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 80,9 foizi yoki 3201,1 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 50,5 foizi yoki 3759,7 mlrd. so'mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 11 148 ta




27,3 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 31,9 foizi) 27,2 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 63,5 foizi) (hisobot davrida 100 ta kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport hamda 180 tasi tomonidan import operatsiyalari amalga oshirildi).

**2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi**




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.soʻm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	3 230,8	98,9
Sanoat	1 418,2	22,2
Qurilish	1 315,7	78,8
Chakana savdo	3 201,1	80,9
Yuk tashish, mln tn.	6,5	84,9
Yoʻlovchi tashish, mln. kishi	66,3	95,3
Eksport, mln. AQSH doll.	27,3	31,9
Import, mln. AQSH doll.	27,2	63,5

## Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2023- yilda 40752 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (33897 ta) 120,2 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (33,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (21,9 %), sanoat (15,4 %), qurilish (9,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5,6 %), tashish va saqlash (2,9 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

**2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
*(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)*




**2023- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi**




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri ( 250,4 mlrd. so'm), Chiroqchi (126,9 mlrd. so'm), Qarshi (126,0 mlrd. so'm), Kasbi (144,7 mlrd. so'm), Koson (113,9 mlrd. so'm), Qamashi (112,7 mlrd. so'm), tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Mirishkor (43,3 mlrd. so'm), Dehqonobod tumanida (44,1 mlrd. so'm), Ko'kdala tumanida (44,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

### 2023- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (889,8 mlrd. so'm), Shahrisabz shaharlari (314,4 mlrd. so'm) va Koson tumani (234,1 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

**2023- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari**



2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 68,1 foizni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga (69,9) nisbatan foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Kasbi va Koson tumanlari (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Muborak (95,8 %), Kitob (66,5 %) tumanlariga va eng past ulushi Shahrisabz shahri (7,2 %) to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Mirishkor (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (91,5%), Kasbi (87,6 %), Koson (85,4 %), Qamashi (84,5 %), Kitob (83,8 %), Qarshi (83,4 %), Dehqonobod (82,5 %), G'uzor (78,0 %), Nishon (75,9 %), Ko'kdala (75,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.